

“2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to’g’risida

TAHLILIIY MA’LUMOT

2022 yil 26 aprel holatiga

№	Ustuvor yo’nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ul vazirlik va idoralar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyihalar <i>(kinga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)</i>
Davlat dasturida Ichki ishlar vazirligi tomonidan bevosita ishlab chiqilishi lozim bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar							
1.	<p>Mahkumlar va jazoni o’tab bo’lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta’minot va xalqaro e’tirof etilgan boshqa huquqlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko’maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo’nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo’lga qo’yish. <i>(Dasturning 47-bandi.)</i></p>	<p>1. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga jazoni o’tash sharoitlarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish. 2. Mehnatga jalb etilgan mahkumlarga koloniyalardagi ish stajini umumiy mehnat stajiga qo’shib hisoblash tartibini joriy etish. 3. Ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o’tab bo’lgan fuqarolarni qo’llab- quvvatlash bo’yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni joriy qilish orqali ularning ijtimoiy moslashuvi mexanizmlarini takomillashtirish. 4. Mahkumlarning tuzalish yo’liga o’tganligini belgilovchi qat’iy mezonlarni belgilash.</p>	Qonun loyihasi.	2022 yil may	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(Sh.Sobirov), Moliya vazirligi (A.Haydarov)</i>	<p>Bajarilmoqda. Mazkur bandning birinchi xatboshisi ijrosini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralar bilan kelishilib, jamoatchilik muhokamasidan o’tkazish uchun 2022 yil 16 aprelda regulation.gov.uz portaliga kiritilgan (57983). Shuningdek, mazkur bandning uchinchi xatboshisidagi topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo’lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko’maklashish bo’yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini joriy etish to’g’risida” qarori loyihasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, huquqiy xulosa olish uchun 2022 yil 13 apreldagi 40/269-son xat bilan Adliya vazirligiga kiritilib, 2022 yil 21 aprelda 3/1-0330-son huquqiy xulosa olingan. Mazkur loyiha vazirlik va idoralarning taklif va mulohazalari asosida qayta ko’rib chiqilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo’lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko’maklashish bo’yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tizimini joriy etish to’g’risida” qarori loyihasi sifatida qayta ishlab chiqilib, 2022 yil 25 apreldagi 40/291-son xat bilan Adliya vazirligiga qaytadan kelishish uchun kiritilgan (58075).</p>
2.	<p>Fuqarolarga huquqiy ta’sir ko’rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog’liq</p>	<p>1. Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo’yicha yagona elektron reestrni yuritishning elektron</p>	Normativ-huquqiy hujjatlar	2022 yil sentyabr	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(N.Turaxodjaev),</i>	<p>Bajarilmoqda. Mazkur band ijrosini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining</p>

	choralarni qo'llashda qonuniylikni so'zsiz ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish. <i>(Dasturning 48-bandi.)</i>	dasturini takomillashtirish. 2. Ushlangan shaxslarni yagona reestrغا kiritish tizimining qonuniy asoslarini mustahkamlash.	loyihalari.			Bosh prokuratura <i>(B.Valiev)</i>	“Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo'yicha yagona elektron reestrni shakllantirish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori loyihasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun 2022 yil 13 aprelda regulation.gov.uz portaliga kiritilgan (58093).
3.	Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish. <i>(Dasturning 56-bandi.)</i>	1. Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro'yxatga olishning “E-huquqbuzarlik” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish. 2. Bir yil davomida takroran sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadigan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning hisobini bir yil davomida yuritish va muddat o'tishi bilan avtomatik ravishda hisobdan olib tashlash tartibini yo'lga qo'yish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2022 yil noyabr	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(B.Abdullaev)</i>	Bajarilmoqda. Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlar haqidagi xabarlarini hisobga olish tizimida zamonaviy usullardan foydalanish to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish uchun 2022 yil 18 apreldagi 7/1-1290-son xat bilan kiritilgan (60047).
4.	Jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish. <i>(Dasturning 57-bandi.)</i>	1. “E-patrul” tizimi joriy etilib, tekshirish uchun fuqaroni ichki ishlar bo'limiga olib borish amaliyotidan voz kechish va barcha ma'lumotlarni joyida tekshirishni yo'lga qo'yish. 2. Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlarining faoliyatini “bodikamera” yordamida nazorat qilishni yo'lga qo'yish. 3. Patrul xizmatini bosqichma-bosqich avto va motopatrul shakliga o'tkazish orqali naryadlarning mobilligini va hodisa joyiga tezkorlik bilan etib borishini ta'minlash.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2022 yil aprel	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(B.Abdullaev)</i>	Bajarilmoqda. Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida”gi qarori loyihasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, huquqiy xulosa olish uchun 2022 yil 15 apreldagi 15/1242-son xat bilan Adliya vazirligiga kiritilgan (58087).
5.	Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohada ishlarida keng ishtirokini ta'minlash. <i>(Dasturning 58-bandi.)</i>	Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022-2026 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan dastur ishlab chiqish: 1. Avtomobil yo'llarida harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish. 2. Yo'llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilar uchun munosib sharoitlarni yaratish. 3. Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish jarayonida va xavfsizlikni ta'minlashda keng jamoatchilikning ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2022 yil may	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov), Transport vazirligi (I.Maxkamov)</i>	Bajarilgan. Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan “Xavfsiz va ravon yo'l” umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 21 aprel kuni 1/692-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (59557). Shuningdek, mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining “Yo'l harakatini tashkil etish to'g'risida”gi Qonuni loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 31 yanvarda 1/184-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (52306). Shu bilan birga, mazkur bandning ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidentining “Yo'l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori

							loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 31 yanvarda 1/170-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (54258).
6.	Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish. <i>(Dasturning 59-bandi.)</i>	<p>1. Ichki ishlar organlari xodimlarining "Kasbiy madaniyat kodeksi"ni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash.</p> <p>2. Ichki ishlar organlarini ma'naviy pok, o'z burchiga sodiq, xalqparvar va mas'uliyatli xodimlar bilan to'ldirish, ularning faoliyatini aholi muammolarini hal etish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash natijadorligi hamda ijtimoiy fikr asosida baholash tizimini joriy etish.</p> <p>3. Ichki ishlar vazirligi va hududiy ichki ishlar organlarida Jamoatchilik kengashlarini tuzish orqali tizim faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tizimini yaratish.</p> <p>4. Ichki ishlar organlarini maksimal darajada "aholi bilan maqsadli ishlash"ga yo'naltirish, uning xizmat faoliyatiga xos bo'lmagan funktsiya va tuzilmalarini maqbullashtirish.</p>	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2022 yil dekabr	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(A.Ikramov)</i>	Bajarilmoqda. Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligida malakali xodimlardan iborat ishchi guruh tuzilib, hozirgi kunda xorijiy tajribalar o'rganib chiqilmoqda.
7.	Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish , jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish. <i>(Dasturning 62-bandi.)</i>	<p>1. Murojaatlar bilan ishlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda aholi uchun uyidan turib, tunu-kun to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatini yaratish.</p> <p>2. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutini isloh qilish va jinoyat haqidagi xabarlarini ro'yxatga olish jarayonini to'liq raqamlashtirish.</p>	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2022 yil oktyabr	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(N.Turaxodjaev),</i> Bosh prokuratura <i>(E.Yuldashev),</i> Axborot texnologiyalari vazirligi <i>(O.Pekos)</i>	Bajarilmoqda Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligida malakali xodimlardan iborat ishchi guruh tuzilib, hozirgi kunda xorijiy tajribalar o'rganib chiqilmoqda.
8.	Shaxsiy va sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni Internet tarmog'ida oshkor qilish bilan bog'liq daxlsizlik huquqlarni buzilishini oldini olish. <i>(Dasturning 326-bandi.)</i>	Jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning daxlsizlik huquqlari bilan bog'liq moddalariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonun loyihagini tayyorlash.	Qonun loyihasi.	2022 yil aprel	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(N.Turaxodjaev),</i> Davlat personallashtirish markazi <i>(U.Tashxodjaev),</i> Davlat xavfsizlik xizmati <i>(kelishuv asosida)</i>	Bajarilgan. Mazkur bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni loyihasi ishlab chiqilib, 2022 yil 14 aprel kuni 1/634-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (56664).